# Jizzax viloyati D`ostlik tumanida 2021-2023 yillarda amalga oshirilgan tashabbusli byudjetlashtirish jarayoni

***Tursunbekov Aybek,***
***Mardonov Ruslan,***
***Saynabiyev Sunnat***
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*Moliya fakulteti, MMT-88 guruh talabalari*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida Tashabbusli byudjet loyihasida O`zbekiston Respublikasi Jizzax viloyati Do`stlik tumanining fuqarolarga mahalliy darajada byudjet dasturlari va loyihalarini shakllantirish va amalga oshirish jarayonida faol ishtirok etish imkonini beruvchi mexanizmini tahlil qilamiz. Fuqarolar tashabbuslar bilan chiqishlari va byudjetdan moliyalashtiriladiganlar uchun ovoz berishlari mumkin. Ushbu loyiha fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va resurslarni boshqarishda shaffoflik va mas'uliyatni oshirishga yordam beradi.*

*Tashabbus byudjeti, shuningdek, fuqarolarning jamiyat uchun muhim masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilishda ishtirok etish darajasini oshirishga yordam beradi, shuningdek, aholining ehtiyojlari va istaklarini hisobga olgan holda mahalliy darajada aniq muammolarni hal qilish imkonini beradi. Bunday yondashuv davlat va fuqarolar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash, jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etishga tayyor faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga xizmat qilmoqda.*

*Tashabbus budjeti loyihasi ham mahalliy loyihalarni amalga oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va tadbirkorlik faolligini rag'batlantirish orqali mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, aholining o'zlari tanlagan ustuvor loyihalarni amalga oshirish orqali infratuzilmani yaxshilash va aholi turmush sifatini yaxshilashga yordam beradi.*

https://openbudget.uz/boards/reports

***Kalit so'zlar:*** *Tashabbusli byudjet, Openbyudjet, yil boshiga qoldiq, Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi, Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag', tashabbusli byudjetlashtirish, erkin qoldiq mablag'lari.*

Quyidagi 1-jadvalda Jizzax viloyati Do'stlik tumanida tashabbusli budjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar qay tartibda taqsimlanishi va sarflanishini ko'rish mumkin. 2021-yil tasabbuslarni moliyalastirish uchun 3 380,0 ming.so'm ajratilgan, 2022-yilda esa qariyb 6 812,0 ming.so'm va 2023-yil 6 019,0 ming.so'm miqdorida mablag'lar ajratilgan.

Jadval ma'lumotlar asosida qayd etish mumkinki, 2021-yil boshiga qoldiq yoq 2022-yil esa yil boshiga qoldiq 30 000 so'mni, 2023-yil 557,0 ming so'mni tashkil qilgan.

Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar 2021-yil 3 380,0 ming.so'mni, 2022-yil 6 812,0 ming.so'mga oshganini, 2023-yilda esa 6 019,0 ming.so'mga oshganini ko'rishimiz mumkin.

**1-jadval**

**Jizzax viloyati Do'stlik tumanining 2021-2023 yillardagi tashabbusli budjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar miqdori**

(ming so'mda)

| T/r | Ko'rsatkich nomi | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Yil boshiga qoldiq | 0,0 | 30 000 | 557,0 |
| 2. | Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar | 3 380,0 | 6 812,0 | 6 019,0 |
| 3. | "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan | 3 380,0 | 6 700,0 | 6 550,0 |
| 3.1. | *Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag'* | 3 370,0 | 6 672,0 | 6 069,0 |
| 3.2. | *Hisobvaraqlardagi qoldiq* | 0,0 | 6 672,0 | 436,0 |
| 4. | "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da qoldiq mablag' | 9 415, 0 | 557,0 | 276,0 |

https://openbudget.uz/boards/reports

**Xulosa:** Jizzax viloyati Do`stlik tumani tashabbusli byudjetlashtirish uchun yo`naltirilgan mablag`lar miqdori so‘ngi uch yil davomida ko‘rsatkichlar 2021 yildan 2023 yilgacha o`sib borgan. Misol uchun yil boshiga qoldiq 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 527,0 ming.so‘mga oshganligini kuzatdik. “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” hisobiga kelib tushgan mablag‘lar esa 2021-yilda 3 380,0 ming.so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2022-yilga kelib 6 812,0 ming.so‘mni tashkil qilib o‘tgan yilga qaraganda 3 432,0 ming.so‘mga oshganligini ko‘rishimiz mumkin. 2023 yilga kelib aksincha 6 550,0 ming.so`mni tashkil qilib “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” hisobiga kelib tushgan mablag‘lar 2022 yilga qaraganda 150,0 ming.so`mga kamaygan. “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” hisobiga kelib tushgan mablag‘lar 2021 yilga nisbatan oshishiga sabab yangi tadbirkorlik subyektlarining tashkil topganligi shuningdek, soliq to‘lovchilar ko‘lamining oshganligi sababli mahalliy budjetda daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi ko‘payganini sabab qilib ko`rsatishimiz mumkin. Ushbu mablag‘lar o‘tgan yildan yangi yil boshiga qolgan qoldiq, mahalliy budjetning tasdiqlangan xarajatlarining 5 %i miqdorida hamda, daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi natijasida kelib tushgan mablag‘lar hisobidan shakillanadi.

Shuningdek, 2021-yilda mahalliy budjetdning orttirib bajarilgan qismidan “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga 10 % 2021-yil 1-iyulda o‘tkazilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-apreldagi PQ-5072-son qaroriga binoan ushbu foiz ko‘rsatkichi 10 % dan 30 % miqdoriga oshirildi, hamda 2022-yil 1-yanvardan boshlab yuqoridagi qarorga muvofiq mahalliy budjetning tasdqilangan umumiy xarajatlarining 5 % i miqdoridagi pul mablag‘lari ham “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” hisobiga yo‘naltirilgan.

2021-yilda bajarilgan ishlar uchun hisobraqamlardan moliyalashtirilgan mablag‘ga qaraydigan bo‘lsak, 2021-yilda 1 ta loyiha qo‘yilgan hamda unga 3 370,0 ming.so‘m mablag‘ ajratilgan. Bu miqdorlar 2022 va 2023 yillarga kelib ikki barobarga oshganligini kuzatdik. Buning asosiy sababi 2021 yilda yangi

https://openbudget.uz/boards/reports

“Tashabbusli byudjet” loyihasiga vaqt o`tishi bilan xalqta qiziqish o`rtib ommalashib borayotgani, va xar bir fuqora o`z tumani yoki mahallasini ancha yillardan beri qiynab kelayotgan muommoni ko`tarib chiqa olishi va o`zi o`voz berishi orqali jamiyatda davlat uchun har bir fuqaroning ovozi ahamiyatga ega ekanligini bildi.

**2-jadval**

**Jizzax viloyati Do’stlik tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar**

| T/r | Tadbirlar nomi | Moliyalashtirilgan takliflar soni | | | Sarflangan mablag’ (ming so‘mda) | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil |
| **Jami** | | **8** | **11** | **7** | **3 127,0** | **6 700,0** | **6 069** |
| 1. | Hududiy ichki yo‘llar | 1 | 2 | 0 | 599,0 | 1 090,0 | 0 |
| 2. | Umumta’lim maktablarini ta’mirlash va jihozlash | 2 | 0 | 2 | 824,0 | 0 | 947,0 |
| 3. | Maktabgacha ta’lim muassasalarini ta’mirlash va jihozlash | 3 | 2 | 1 | 1 495,0 | 2 000,0 | 759,0 |
| 4. | Sog‘liqni saqlash muassasalarini ta’mirlash va jihozlash | 0 | 1 | 0 | 0 | 990,0 | 0 |
| 5. | Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta’mirlash va jihozlash | 0 | 2 | 4 | 0 | 220,0 | 4 363,0 |
| 6. | Ichimlik suvi ta’minotini yaxshilash | 1 | 0 | 0 | 249,0 | 0 | 0 |
| 7. | Ko‘cha chiroqlarini o‘rnatish tadbirlari | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 8. | Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish) | 1 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| 9. | Boshqa tadbirlar | 0 | 4 | 0 | 0 | 2 400,0 | 0 |

https://openbudget.uz/boards/reports

**Xulosa:** Jizzax viloyati Do`stlik tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar shuni ko’rsatadiki 2021- yilda hududiy ichki yo’llar soni 1 ta tashkil etgan bo’lib, sariflangan mablag’lar 599,0 ming so’mni, 2022-yilga kelib bu ko’rsatkich 2 tani, 2021-2022 va 2023 yillarda maktablarni ta`mirlash va jihozlash, sog’liqni saqlash muassasalarinni ta’mirlash va jihozlash, ko’cha chiroqarini o’rnatish va boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta’mirlash va jihozlash uchun sarflangan summa 1495,0 ming.so`mni tashkil etgan. Tumanda maktabgacha ta'lim muassalarini ta'mirlash va jihozlash masalasi 2021 yilda dolzarb bolib 3 ta loyihaga 1 495,0 ming.so'm mablag' sarflangan bo'lsa 2023 yilga kelib bu holat 1 tagacha kamayib 759,0 ming.so'mgacha kamayib ijobiy tomonga yaxshilangan. Tumanda xalq orasida dolzarblashib borgan soha 2021 yildan 2023 yilgacha 0 dan 4 taklifni qayd etgan  Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta’mirlash va jihozlash sohalari ekanligini ko’rishimiz mumkin.

**3-jadval**

**Jizzax viloyati Do’stlik tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg’armasi mablag’larining shakllanish manbalari**

(ming.so'm)

| **Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari** | | **2021-yil** | 2022-yil | **2023-yil** |
|---|---|---|---|---|
| Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar | | 5 990,0 | 5 906,9 | 6 000,0 |
| Mahalliy budjetining yil boshiga shakllangan Erkin qoldiq mablag'lari | | 58,0 | 1 150,0 | 21,0 |
| Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar | | 1 804,0 | 0 | 0 |
| Shu jumladan | Erkin qoldiq mablag'lari | 58,0 | 1 150,0 | 21,0 |
| | Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi | 1 746,0 | 0 | 26,0 |
| | Iqtisod qilingan mablag'lar | 0 | 0 | 0 |
| Qo'shimcha ajratilgan | PQ-5250ga asosan | 0 | 0 | 0 |
| | PQ-409ga asosan | 0 | 0 | 0 |

https://openbudget.uz/boards/reports

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | PQ-117ga asosan | 0 | 0 | 0 |
| **Jami ajratiladigan mablag'lar** | | **9 598,0** | 7 056,9 | **6 068,0** |

**Xulosa:** 3-jadval bo‘yicha Do`stlik tumanida fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi mablag‘larini shakillanish manbalarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, 2021-yil uchun bir moliya yili uchun tuman budjetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 % qismi ya’ni umumiy hisobda 5 990,0 ming so‘m miqdoridagi pul mablag‘lari jamg‘arma hisobiga yo‘naltirilgan. Shuningdek, Do`stlik tumanining 2021-yil yil boshiga erkin qoldig‘i 58,0 ming so‘mni tashkil qilgan.

Do`stlik tumani fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi hisobiga daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilishi hisobiga 1 746,0 ming so‘m mablag‘ ajratilgan.

2022-yil uchun bir moliya yili uchun tuman budjetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 % qismi ya’ni umumiy hisobda 5 852,0 ming so‘m miqdoridagi pul mablag‘lari jamg‘arma hisobiga yo‘naltirilgan. Shuningdek, Do`stlik tumanining 2022-yil yil boshiga erkin qoldig‘i 1 150,0 ming so‘mni tashkil qilgan.

Do`stlik tumani fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi hisobiga daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilishi hisobiga 0,0 ming so‘m mablag‘ ajratilgan. Bundan ko`rinib turibdiki 2022 yilda Do`stlik tumani Do`stlik tumani fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi hisobiga daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilishiga erisha olmagan yani tumanda profisit holati kuzatilmagan deb xulosa chiqarishimiz mumkin 2022 yil uchun.

2022 va 2023-yillarni taqqoslaydigan bo‘lsak, 2023-yilda tuman budjetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5% qismi ya’ni 6 000,0 mln.so‘m miqdoridagi mablag‘lar jamg‘armaga yo‘naltirilib, 2022-yilga nisbatan 1 472,0 ming.so‘m ko‘p yo‘naltirilgan bundan ko‘rinib turibtiki Do`stlik tumanining bir moliya yili uchun xarajatlar miqdori oshganligini bildiradi. Shuningdek, Do`stlik tumani fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi hisobiga daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan

https://openbudget.uz/boards/reports

oshirib bajarilishi hisobiga 27,0 ming so‘m mablag‘ ajratilib, 2022-yilga nisbatan 27 300 so‘mga oshganligini ko‘rishimiz mumkin. 2023 yilda 2022 yilga nisbatan Do`stlik tumani fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi hisobiga daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilishi ijobiy tomonga o`zgarganini ko`rishimiz mumkin.

**4-jadval**

**Jizzax viloyati Do’stlik tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilhan loyihalar tarkibi**

| T/r | Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi) | Jami to‘plagan ovozlar soni | Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag’ miqdori (ming.so'm) |
|---|---|---|---|
| **2021-yil** | | | |
| **1.** | Do’stlik tumani A.Navoiy mahalla fuqarolar yig’inida ichimlik suv tizimini yahshilash | 836 | 250,0 |
| **2.** | Do’stlik tuman Mevazor mahalla fuqarolar yig’ini hududidagi Beruniy ko’chasi va G’.G’ulom va Chinobod mahalla fuqarolar yig’inidagi X.Isroilov hamda temir yo’l ko’chalariga asfalbeton qoplash ishlarini amalga oshirish | 115 | 600,0 |
| **3.** | Do’stlik tumanidagi G’.G’ulom va chinobod mahalla fuqarolar yig’inlaridagi ko’p qavatli uylarda kanalizatsiya tizimini yahshilash | 103 | 200,0 |
| **4.** | Do’stlik tuman Mevazor mahalla fuqarolar yig’ini hududidagi 7- son maktabgacha ta’lim tasshkilotini joriy ta’mirlash hamda moddiy texnik bazasini rivojlantirish | 73 | 400,0 |
| **5.** | Son maktabgacha ta’lim tashkiloti joriy ta’mirlash hamda moddiy texnik bazasini rivojlantirish | 67 | 400,0 |

https://openbudget.uz/boards/reports

| | | | |
|---|---|---|---|
| **6.** | Do'stlik tuman G'.G'ulom mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi 1- son umumta'lim maktabi mehnat ustahonasini joriy ta'mirlash | 67 | 400,0 |
| **7.** | Do'stlik tuman „ Sartepa" mahalla fuqarolar yig'inidagi 3- sonli umumta'lim maktabini joriy ta'mirlash | 59 | 430,0 |
| **8.** | Do'stlik tuman Chinobod mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi 3- sonli maktabgacha ta'lim tashkilotini joriy ta'mirlash hamda moddiy texnik bazasini rivojlantirishda | 50 | 700,0 |
| | **2022-yil** | | |
| **1.** | Mevazor mahallasidagi "Rayxon" nomli 5-sonli maktabgacha ta'lim muassasini joriy ta'mirlash. | 613 | 800,0 |
| **2.** | Oltin Vodiy MFYdagi "Munavvar Soliyeva" nomli 6-sonli maktabgacha ta'lim muassasi (eski 17-maktab)ni joriy ta'mirlash. | 569 | 1 200,0 |
| **3.** | Oltin vodiy MFY hududida piyodalar yo'lagi qurish | 371 | 590,0 |
| **4.** | Navro'z MFY dagi ko'p qavatli uylarni tom qismini ta'mirlash | 308 | 800,0 |
| **5.** | Mevazor MFY binosini ta'mirlash | 280 | 400,0 |
| **6.** | Sartepa hududida piyodalar yo'lagi qurish | 249 | 500,0 |
| **7.** | Axborot kutubxona markazi moddiy texnik bazasini ta'minlash | 209 | 17,0 |
| **8.** | Navro'z MFY G"ayrat ko'chasidagi ko'p qavatli uylarni ta'mirlash | 204 | 800,0 |
| **9.** | Tuman tibbiyot birlashmasini joriy ta'mirlash | 198 | 990,,0 |
| **10.** | Oltin vodiy MFY binosini ta'mirlash | 169 | 400,0 |
| **11.** | Boshqa tadbirlar: | 63 | 200,0 |
| | **2023yil** | | |

https://openbudget.uz/boards/reports

| | | | |
|---|---|---|---|
| **1.** | 3-Umumta'lim maktabini zamonaviy kompyuter bilan jihozlash | 1306 | 200,0 |
| **2.** | Sanoatchilar mahalla binosini joriy ta'mirlash | 1166 | 1 200,0 |
| **3.** | Chinobod MFY binosini joriy ta'mirlash va moddiy texnik bazasini rivojlantirish taklifi | 897 | 1 300,0 |
| **4.** | G'.G'ulom MFY dagi Do'stlik tumani 2-umumta'lim maktabiga sport jihoxlari va kuz va qish mavsumiga tayyorlash maqsadida kraska buyoq harid qilish taklifi | 891 | 800,0 |
| **5.** | Oltin vodiy MFY | 827 | 900,0 |
| **6.** | Sartepa mahalla binosini joriy ta'mirlash | 761 | 1 200,0 |
| **7.** | Sartepa MFY binosi atrofini panjaralar bilan o'rash va moddiy texnik bazasini mustahkamlash | 298 | 950,0 |

**Xulosa:** Xulosa qilib shuni aytish kerakki Tashabbusli budjet loyihasi yildan yilga ommalashib bormoqda va buni xalq o'z manfaatlari yo'lida to'g'ri va o`z aqlini ishlatgan holda foydalanib kelinmoqda. Tashabbusli budjet loyihasi amalga oshirishdan maqsad aholining turmush darajasni yashilash, mablag'i kam daromadligi past bo'lgan viloyat va tumanlarni turmush darajasini yaxshilashddan iboratdir.

Jizzax viloyati Do`stlik tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilhan loyihalar tarkibi bo'yicha 2021-yildan 2023-yilgacha bo'lgan vaqtda tuman xududidagi ichimlik suvlari tizimlarini yangitdan barpo etish va yaxshilash, maktab va boqchalarga qo'shimcha binolar qurish va eskirgan binolarni kapital remont qilish, ichki yo'llarni shag'allashtirish kabi tadbirlar haqida xulosalar berib o'tamiz.

2021-yilda tuman "Do'stlik tumani A.Navoiy mahalla fuqarolar yig'inida ichimlik suv tizimini yahshilash" "fuqarolar ishtirokidagi tashabbusli byudjet" loyihasida fuqarolar faol ishtirok etib jami 836 ta ovoz orqali ishtirok etishgan va bu loyiha uchun 250,0 mingso'm mablag' ajratilgan. Shuningdek "Do'stlik tuman Mevazor mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi Beruniy ko'chasi va G'.G'ulom va

https://openbudget.uz/boards/reports

Chinobod mahalla fuqarolar yig'inidagi X.Isroilov hamda temir yo'l ko'chalariga asfalbeton qoplash ishlarini amalga oshirish" loyihasi bo'yicha jami 115 ta ovoz to'plangan, bundan 115 tasi onlayn ovoz berilgan, xamda 600,0 ming.so'm mablag' ajratilgan.

2022-yilda esa Do`stlik tumani xududidagi piyodalar yo`lagi, ko`p qavatli uylarni ta`mirlash, Umumiy o'rta ta'lim va maktabgacha ta'lim sohalarini rivojlantirish, maktab hududiga yani o'quv binolari qurish, sport zallarni barpo qilish, yashil mini maydonlar yaratish kabi tadbirlar uchun 2022-yillarda eng katta mablag'lar ajratilganligini ko'rib o'tamiz. 2022-yilda Oltin vodiy MFY hududida piyodalar yo'lagi qurish uchun jami 371 ta ovoz to'plangan ulardan 371 tasi onlayn berilgan ovozlardir, ushbu loyihaga 590,0 ming.so'm mablag' ajratilgan. Mevazor mahallasidagi "Rayxon" nomli 5-sonli maktabgacha ta'lim muassasini joriy ta'mirlash jami 613 ta ovoz to'plangan ulardan 613 tasi onlayn berilgan ovozlar hisoblanadi va bu loyiha bo'yicha 800,0 ming.so'm mablag' ajratilganini ko'rishimiz mumkin.

2023-yilda Umumta'lim maktabini zamonaviy kompyuter bilan jihozlash uchun jami 1 306 ta ovoz to'plangan va bu ovozlarning hammasiga online ovoz berilgan loyihaga 200,0 ming.so'm miqdorda mablag' ajratilgan. Chinobod MFY binosini joriy ta'mirlash va moddiy texnik bazasini rivojlantirish taklifi uchun jami 897 ta ovoz online to'plangan bu loyihaga 1 300,0 ming.so'm mablag' ajratilgan.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент:"Шарқ. 2010;804.

2. Malikov, T., and Haydarov NH. Byudjet. "O'quv qo 'llanma." Toshkent:"Iqtisod-moliya 84 (2008).

3. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O 'quv qo 'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018

4. Malikov T, Haydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O'quv qo 'llanma, Toshkent:"IQTISOD-MOLIYA. 2007.

https://openbudget.uz/boards/reports

5. Маликов ТС. Ҳайдаров НҲ “Молия: умумдавлат молияси”. Ўқув қўлланма. 2009.

6. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.:“Iqtisod-moliya. 2019.

7. Malikov, T. S., & Olimjonov, O. O. (2019). Moliya: Darslik.

8. Malikov T, Haydarov N. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O‘quv qo‘llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA. 2008.

9. Ўроқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. Т. 2017

10. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022

11. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари - Science and Education, 2022

12. Ўроқов У, Иргашев И, Ғайбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022

13. UY O'roqov, JA Yomg'Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta’minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary …, 2022

14. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффофлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.

15. Ўроқов У. Ғайбуллаев О. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Baktria press. 2016.

16. Уроков У. Махаллий бюджетлар мустакиллигини оширишга оид назарий карашлар. Республика илмий-амалий конференция. ТМИ 2020.

17. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020

18. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. 2017

19. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).

https://openbudget.uz/boards/reports

20. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақилигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.

21. У Ўроқов.Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг ҳуқуқий асослари.- Science and Education, 2023

22. G‘aybullayev O, O‘roqov U. O‘zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O‘quv qo ‘llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.

23. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.

24. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020.

25. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления.“Молия” илмий журнали. 2022.

26. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.

27. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).

28. Ikramjon Masharipov. Yangi O‘zbekistonda zamonaviy fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanish jarayonlari. Общество и инновации.2024

https://openbudget.uz/boards/reports